

Misrdan Madyanga safar



15:29 / 07.11.2021 3110

Lekin Muso qaerga borsin! Axir Misrning barcha yeri Fir'avn mamlakati-ku? Fir'avn jallodlari hamma joylarda qarq'a ko'z va chumoli belgi bo'lib, uni izlab izg'ib yurishibdi! Alloh Musoga arab shahri Madyanga ketishni ilhom qildi. Chunki u yerga Fir'avnning qo'li yetmasdi. Sahroda joylashgan bir qancha qishloqlardan iborat bu arab diyorida Misr madaniyatidek hashamatli saroylar, katta-katta bog'lar yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, Fir'avn zulmidan ozod Madyan baxtli hayot kechirdi. Baxtli edi, chunki hur o'lka edi. U yer Fir'avn hukmi ostida emas edi.

Adolat va erkinlik hukm surgan qoloqlik naqadar yaxshi!

Xorlik va qullik bilan bo'lgan madaniyat kimga ham kerak?

U yerda har-bir kimsa Fir'avnning bosqini va qahridan qo'rqmaydi. Madyanda bolalar so'yilmasdi! Muso «Orqamdan hech kim quvib kelmayaptimikan» degan

xavotir bilan qoʻrqa-pisa Misrdan chiqib, Madyanni qasd qilgan holda yoʻlga tushdi. Lekin jallodlar uyquga ketgan edi. **«Bismillah» deb Allohdan madadlar soʻrab Misrdan chiqib ketdi. Va qachonki Madyan (shahri) tomonga yuzlangach, dedi: «Shoyad Parvardigorim meni toʻgʻri yoʻlga hidoyat qilsa...».**

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad